



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar.....	15
Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
Babayev A.N. Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Адилов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
Abduvovyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish... Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	116
Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
Аҳмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralari boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	157
Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

**OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI BOSHQARUV TIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA
IQTISODIY NAZARIYALARNING METODOLOGIK AHAMIYATI**

**МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ В
ФОРМИРОВАНИИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ
ОРГАНИЗАЦИЯМИ**

**METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF ECONOMIC THEORIES IN FORMING THE
MANAGEMENT SYSTEM OF HIGHER EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

***Saidaxmedova N.I., **Aripov A.S.**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.(DSc)

**O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati tahlil qilingan hamda universitet avtonomiyasini oshirish, moliyaviy resurslar va inson kapitalini samarali boshqarish, shuningdek, innovatsion va strategik boshqaruv mexanizmlarini integratsiyalash asoslangan. Tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular oliy ta’lim tashkilotlarini samarali, raqobatbardosh va ijtimoiy ahamiyatli institutlar sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, boshqaruv tizimi, iqtisodiy nazariyalar, metodologik yondashuv, universitet avtonomiyasi, inson kapitali, moliyaviy resurslar, innovatsion boshqaruv, strategik boshqaruv.

В данной статье анализируется методологическое значение экономических теорий в формировании системы управления высшими учебными заведениями и рассматриваются вопросы повышения автономии университетов, эффективного управления финансовыми ресурсами и человеческим капиталом, а также интеграции инновационных и стратегических механизмов управления. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации, которые будут способствовать развитию высших учебных заведений как эффективных, конкурентоспособных и социально значимых институтов.

Ключевые слова: высшее образование, система управления, экономические теории, методологический подход, автономия университетов, человеческий капитал, финансовые ресурсы, инновационное управление, стратегическое управление.

This article analyzes the methodological significance of economic theories in the formation of management systems in higher education institutions. It highlights the importance of enhancing university autonomy, ensuring the effective management of financial resources and human capital, as well as integrating innovative and strategic management mechanisms. Based on the research findings, practical recommendations have been developed that contribute to the development of higher education institutions as efficient, competitive, and socially significant entities.

Keywords: higher education, management system, economic theories, methodological approach, university autonomy, human capital, financial resources, innovative management, strategic management.

Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ta’lim sohasini, jumladan, oliy ta’lim tizimini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Oliy ta’lim tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda OTT) milliy iqtisodiyot uchun raqobatbardosh inson kapitalini tayyorlashda strategik ahamiyatga ega institut sifatida qaralmoqda. Shu bois, ularning boshqaruv

tizimini zamonaviy talablar asosida shakllantirish masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Hozirgi sharoitda ta’lim tizimini boshqarish mustahkam ilmiy asosda qurilishi lozim. Ta’lim tizimini boshqarish – murakkab, serqirra muammo. Bu muammo davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim tizimi darajasida, mintaqa darajasida va bevosita ta’lim tashkilotlarida, shuningdek, tashkiliy, tarkibiy va mazmuniy, metodik yo‘nalishlarda hamda pedagog kadrlarning yuqori saviyasini shakllantirish orqali hal etiladi.

Zamonaviy davrda OTTlari boshqaruv tizimini takomillashtirish mamlakatimizdagi ta’lim sohasining strategik ustuvorligi hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida oliy ta’lim tizimini rivojlantirish “O‘zbekiston-2030” strategiyasi va 2025-yil 26-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Murojaatnomasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uzviy bog‘liqdir [1]. Bu strategiyada ta’lim muassasalarining strategik avtonomiyasini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish, moliyaviy mustaqillikni oshirish, samaradorlik va natijadorlikka asoslangan boshqaruv modellarini joriy etish asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa OTTlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy yondashuvlar va iqtisodiy nazariyalarning metodologik asos sifatida chuqur tahlil etilishini talab qiladi.

Amaldagi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim boshqaruvi ko‘p hollarda pedagogik yoki ma’muriy nuqtai nazardan o‘rganilgan bo‘lib, iqtisodiy nazariyalar (institutSIONAL iqtisodiyot, inson kapitali nazariyasi, neoklassik va neoinstitutSIONAL yondashuvlar, jamoat tanlovi nazariyasi va boshqalar)ning metodologik roli yetarlicha tizimli asoslanmagan. Bu esa boshqaruv qarorlarining iqtisodiy samaradorligini ta‘minlashda muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Yangi O‘zbekistonda ta’lim islohotlari davrida oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyatini ochib berish, ularning amaliy qo‘llanish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash mazkur mavzuning yuqori dolzarbligini belgilaydi.

Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati yuzasidan ilmiy va amaliy manbalar tahlili asosida quyidagilarni qayd etish mumkin:

Jahon ilmiy adabiyotlarida OTTlari boshqaruvi masalalari, asosan, iqtisodiy nazariyalar bilan bog‘liq holda institutsional iqtisodiyot, inson kapitali nazariyasi, jamoat sektori iqtisodiyoti va neoinstitutSIONAL yondashuvlar doirasida o‘rganilgan.

Inson kapitali nazariyasi asoschilaridan biri hisoblangan G.Bekker ta’limni iqtisodiy o‘shirish va mehnat unumdorligini oshirishning asosiy omili sifatida talqin etadi. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, ta’limga kiritilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy samara keltiradi, bu esa OTTlari boshqaruvida resurslarni samarali taqsimlash zaruratini asoslab beradi [1].

T.Shuls ta’lim va inson kapitali o‘rtasidagi bog‘liqlikni makroiqtisodiy darajada tahlil qilib, davlat siyosatining ta’lim sohasidagi rolini iqtisodiy nuqtai nazardan asoslab bergan. Uning tadqiqotlari oliy ta’limni jamoat ne‘mati sifatida boshqarish metodologiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Institutsional iqtisodiyot doirasida D.Nort ta’lim muassasalarini rasmiy va norasmiy institutlar tizimining tarkibiy qismi sifatida ko‘radi. Uning ta’limotlariga ko‘ra, samarali boshqaruv tizimi institutsional muhit bilan uyg‘un bo‘lishi lozim, bu esa OTTlari avtonomiyasini oshirish masalasini iqtisodiy jihatdan asoslash imkonini beradi [3].

Oliy ta’lim boshqaruvinu yangi jamoat menejmenti (New Public Management) nuqtai nazaridan tahlil qilgan B.Klark universitetlarni “korxonaga yaqinlashgan model” asosida boshqarish g‘oyasini ilgari suradi. U oliy ta’limda moliyaviy mustaqillik, raqobat va natijadorlik ko‘rsatkichlariga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish zarurligini ta’kidlaydi [4].

Shuningdek, J.Salmi, F.Altbax, S.Marginson kabi olimlar tadqiqotlarida globallashuv sharoitida universitetlarning strategik boshqaruvi, moliyaviy diversifikatsiya va inson kapitalini rivojlantirish masalalari iqtisodiy nazariyalar bilan bog‘liq holda yoritilgan [5].

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan OTTlari boshqaruvi masalalari, asosan, OTT menejmenti, ta’lim menejmenti, davlat boshqaruvi va iqtisodiy islohotlar kontekstida tadqiq etilgan. Jumladan, Sh.Qurbonov va E.Seyitxalilov ishlarida ta’lim tizimini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy

mexanizmlari, davlat va bozor munosabatlarining uyg‘unligi masalalari keng yoritilgan. Ular ta’lim sohasida iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq ekanini ilmiy jihatdan asoslaydilar [6].

R.X.Jo‘raev va N.Musurmonova tadqiqotlarida ta’lim tashkilotlarida strategik boshqaruv, resurslardan foydalanish samaradorligi va innovatsion menejment masalalari tahlil qilingan bo‘lib, ular iqtisodiy yondashuvlarning metodologik ahamiyatini amalda tasdiqlaydi [7].

I.Turaevning tadqiqotlarida OTTlarida universitet avtonomiyasini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalarini tahlil qilgan [8]. A. Shadiyevning esa xususiy OTTlarida strategik boshqaruv, moliyaviy mustaqillik va bozor talablariga moslashuvchanlikning ahamiyatini ochib bergan [9].

A.A.Maxmudovning “Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarishga oid ayrim nazariy yondashuvlar” deb nomlangan maqolasida OTTlarini moliyalashtirishda budjet mablag‘lari asosiy o‘rinni egallashi, moliyalashtirish mablag‘larining hajmini mamlakatning ijtimoiy rivojlanish darajasi, aholining daromadi, yalpi ishlab chiqarish mahsulotlari, moddiy bazani mustahkamlash va qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini topish, iqtisodiyot tarmoqlarining oliy darajadagi mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji va talablariga qarab belgilanishi lozimligini ta’kidlagan [10].

So‘nggi yillarda oliy ta’limda avtonomiya, akademik liderlik va moliyaviy mustaqillik masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda iqtisodiy nazariyalarga murojaat qilish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu borada zamonaviy mahalliy tadqiqotlarda inson kapitali nazariyasi, institutsional yondashuv va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv modellaridan foydalanishga urinishlar kuzatiladi. Biroq tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud mahalliy tadqiqotlarda iqtisodiy nazariyalar, ko‘p hollarda, yordamchi instrument sifatida qo‘llanilib, ularning metodologik asos sifatidagi roli alohida, tizimli va kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur mavzuning ilmiy yangiligi va tadqiqot zaruratini yanada oshiradi.

Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, OTTlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq milliy oliy ta’lim tizimi xususiyatlarini hisobga olgan holda, mazkur nazariyalarning kompleks va tizimli qo‘llanilishi yetarli darajada tadqiq etilmaganligini nazarda tutgan holda, mazkur mavzu ilmiy-metodologik jihatdan dolzarb bo‘lib, milliy oliy ta’lim tizimini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy va amaliy manbalar tahlili asosida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- Iqtisodiy va institutsional tahlillar ko‘rsatdiki, OTTlari boshqaruv tizimi an’anaviy ma’muriy modellarga asoslanib, moliyaviy va inson resurslarini samarali taqsimlashda cheklovlariga duch kelmoqda. Universitetlar avtonomiyasini oshirish va strategik boshqaruvni joriy qilish samaradorlikni sezilarli darajada ko‘tarishi mumkin.

- Empirik tahlillarga asosida, davlat va xususiy universitetlardan olingan ma’lumotlarga ko‘ra: universitetlarning 60–70% an’anaviy boshqaruv usullarini qo‘llaydi; innovatsion menejmentni qo‘llaydigan universitetlarda ta’lim sifati va ilmiy faoliyat samaradorligi sezilarli darajada oshgan; moliyaviy mustaqillik va strategik rejalashtirish universitetlarning xalqaro reytingdagi o‘rnini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ilmiy tahlil va natijalar shuni ko‘rsatadiki, strategik boshqaruvning ahamiyati - missiya va maqsadlarni aniq belgilash samaradorlikni oshiradi; institut va iqtisodiy mexanizmlar uyg‘unligi - an’anaviy qoidalar bilan iqtisodiy prinsiplarni uyg‘unlashtirish universitet barqarorligiga xizmat qiladi; inson kapitali va innovatsiyalarni boshqarish - kadrlar salohiyati va ilmiy faoliyat samaradorligi universitetning iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirini ko‘paytirishi mumkin; moliyaviy samaradorlik - strategik byudjetlashtirish va moliyaviy mustaqillik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyot subyektlari faoliyatida boshqaruv tizimini shakllantirishda e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan bir qator iqtisodiy nazariyalar mavjud bo‘lib, ular OTTlari boshqaruv faoliyatining o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlariga mos ravishda quyidagicha tasniflanishi mumkin:

1. D.Bell, E.Toffler, J.Nesbet, F.Fukuyama va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan postindustrial iqtisodiyot nazariyasi. Mazkur nazariyaning asosiy g‘oyasi bilimlar, informatsion

sohadagi ilmiy yangiliklar, insonlarning ta’lim darajasi, kompetensiyalar, kreativlik bilan bog‘liq. Demak, OTT boshqaruv tizimi axborot ta’minoti, boshqaruv xodimlarining malakaviy kompetensiyalaridan kelib chiqqan holda tashkil etiladi.

2. E.Perouz, B.Vernerfild, J.Barni tomonidan yaratilgan, so‘ngra “asosiy kompetensiyalar” konsepsiyasi sifatida K.Praxalad va G.Xemel tomonidan rivojlantirilgan resurslar nazariyasi. Resurslar o‘z tarkibiga tashkilotning moddiy va nomoddiy aktivlarini (inson, intellektual, bilimlar, brend va boshqalar) olib, boshqaruv tizimining bosh maqsadi resurslarni insonlarning asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirish hisoblanadi.

3. D.Salanchik, J.Pfeffer, G.Oldrichlar tomonidan ishlab chiqilgan resurslarga tobeklik nazariyasi. Mazkur nazariyaga binoan birorta ham oliy ta’lim muassasasi barcha zaruriy resurslarni yaratishi mumkin emas. Shuning uchun muqobil ta’lim shakllari, boshqa OTTlar va biznes subyektlari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, resurslarning bir qismini boshqa manbalardan jalb qilishga majbur. OTT faoliyatining muvaffaqiyati mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar bilan ta’minlanish darajasiga bog‘liq.

4.M.Xammer va J.Champilar tomonidan taklif etilgan boshqaruvning jarayonli konsepsiyasi. Ushbu konsepsiyaga binoan boshqaruv yagona, mantiqiy aloqador jarayonlar jamlanmasi hisoblanadi. Jarayonli model o‘zaro muvofiqlashtirilgan rejalar, loyihalar va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

5. Bilimlar iqtisodiyoti nazariyasiga (P.Druker) ko‘ra, har bir OTTning bazaviy resursi - professor-o‘qituvchilardan talabalarga yetkazilayotgan bilim va ko‘nikmalar hisoblanadi. Demak, boshqaruv tizimining bosh maqsadi professoro‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik imkoniyatlarini oshirishdan iborat bo‘lishi lozim.

6. G.Bekker va T.Shuls tomonidan ishlab chiqilgan inson kapitali nazariyasi. Mazkur nazariyaga binoan, professor-o‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlashga qilingan xarajatlarga investitsiya sifatida qaraladi. Bunga ko‘ra, boshqaruv tizimi uchun OTT xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash masalasi ustuvorlik kasb etadi.

Fikrimizcha, OTT boshqaruv tizimini tashkil etishda yuqorida keltirilgan nazariyalarning hech biri e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Shu bilan bir qatorda, ulardan hech birini alohida olgan holda qo‘llash ham maqsadga muvofiq emas. Demak, mazkur nazariyalarning o‘ziga xos bo‘lgan “gibrid”i talab etiladi. Mazkur boshqaruv jarayoni oliy ta’lim tizimida kuzatilayotgan global tendensiyalar va trendlar, mavjud muammolar hamda ushbu tizim faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasida nazarda tutilgan maqsad va vazifalarni e’tiborga olgan holda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan ta’lim islohotlari, ayniqsa oliy ta’lim tizimini transformatsiya qilish jarayonlari, universitetlar boshqaruvini an’anaviy ma’muriy modellardan iqtisodiy asoslangan, natijaga yo‘naltirilgan va institutsional yondashuvlarga o‘tkazish zaruratini ko‘rsatmoqda. Ushbu transformatsion jarayonlar faqat boshqaruv tizimi bilan cheklanmasdan, OTTlarning barcha funksional faoliyat yo‘nalishlarini qamrab olayotganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, bugungi kunda OTTlar faoliyatini tashkil etish modellarida jiddiy o‘zgarishlar yuz bermoqda, degan xulosaga kelish mumkin.

Xorijiy olimlar tadqiqotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, OTTlari boshqaruvida iqtisodiy nazariyalar: resurslarni samarali taqsimlash, inson kapitalini rivojlantirish, institutsional muhitni takomillashtirish, universitet avtonomiyasi va javobgarligini muvozanatlash kabi masalalarda mustahkam metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bizningcha, bugungi milliy ta’lim tizimi sharoitida boshqaruvida iqtisodiy mexanizmlar ahamiyati oshib bormoqda. Biroq tahlillar natijasiga ko‘ra quyidagi: iqtisodiy nazariyalarning oliy ta’lim boshqaruvida metodologik asos sifatida kompleks qo‘llanilmasligi; moliyaviy, kadrlar va akademik resurslarni boshqarishda iqtisodiy samaradorlik mezonlarining yetarli darajada joriy etilmagani hamda universitet avtonomiyasini baholash va monitoring qilishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari tizimi shakllanmagani kabi ilmiy-amaliy bo‘shliqlar mavjud.

Bizningcha, yuqoridagilar asosida quyidagi ilmiy xulosalarni keltirish maqsadga muvofiq:

1. OTT boshqaruv tizimi iqtisodiy nazariyalar asosida shakllantirilganda, uning institutsional barqarorligi va iqtisodiy samaradorligi oshadi.

2. Inson kapitali nazariyasi oliy ta’limda kadrlar siyosati, ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish va ta’lim sifati boshqaruvi uchun asosiy metodologik poydevor hisoblanadi.

3. Institutsional iqtisodiyot universitet avtonomiyasi, hisobdorlik va korporativ boshqaruv modellarini joriy etish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

4. Yangi jamoat menejmenti tamoyillari oliy ta’limda natijadorlikka asoslangan boshqaruvni shakllantirish imkonini beradi.

Bizningcha, olib borilayotgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq:

- OTTlari boshqaruv tizimini shakllantirish uchun iqtisodiy nazariyalarga asoslangan konseptual modelni ishlab chiqish;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy samaradorlik va natijadorlik ko‘rsatkichlariga (KPI) asoslangan mexanizmlarni joriy etish va rivojlantirib borish;

- universitet avtonomiyasini baholash va monitoring qilishning iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish va rivojlantirish.

Maqolada ilgari surilgan xulosa va tavsiyalar OTTlari boshqaruv samaradorligini oshirishga va milliy oliy ta’lim tizimini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
2. Schultz T.W. Investment in Human Capital. – New York: Free Press, 1971.
3. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
4. Clark B.R. Creating Entrepreneurial Universities. – Oxford: Pergamon Press, 1998.
5. Altbach P., Salmi J. The Road to Academic Excellence. – Washington: World Bank, 2011.
6. Qurbonov Sh., Seyitxalilov E. Ta’lim menejmenti. – Toshkent: Fan, 2006.
7. Jo‘raev R.X., Musurmonova N. Oliy ta’limda boshqaruv nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2018.
8. Turaeva I. Higher Education Management and Its Development in Uzbekistan: Universities, Research Focus, and International Collaborations. Inlibrary.uz, 2025.
9. Shadiyev A. Education Management in Private Universities in Uzbekistan: Development Strategies, Challenges and Prospects. Inlibrary.uz, 2025.
10. Inoyatov O. S. Effective Management of Administrative Personnel in Uzbekistan’s Public Universities. Yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz, 2025.
11. Saidaxmedova N.I., Kurbaniyazov Sh.K. Interrelations of organizational structures in the management process through prospective development strategy of the higher yeduction institution. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ), 11(12), India, 2023.